

‘FAOL HAYOTGA QADAM’ DASTURI

Sharof Rashidov tuman Pastki So'loqli MFY mahallada kompleks ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni tashkillashtirish yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun lavozimga tayinlangan ijtimoiy hodim

To'lishova Orzugul Saidali qizi.

(doirasida tezis)

Annotatsiya: Ushbu tezisda ‘o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ‘ mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxs, yakka yolg'iz, yolg'iz yashovchi, nogironligi bo'lgan shaxs, ijtimoiy xordiq, oila hamkori, Bartel va Lauton shkala va hakoza.

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda mamlakatimizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining huquqlari davlat tomonidan himoyalaniishi belgilab berildi. Shu boisdan, **‘ijtimoiy davlat’** tamoyilini inobatga olgan holda, fuqoralarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yangi boshqichga olib chiqildi. Ijtimoiy ish kasbi boshqa sohalar ichida insonparvarligi, fuqarolar va jamiyatga professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan boshqa kasblardan ajralib turadi. Ushbu soha egalaridan o'z faoliyatlarida o'zgaralarga g'amxo'rlik qilish, fidoyilik va sabr matonat talab qilinadi. Sababi, ushbu kasb egalari o'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan yakka yolg'iz va yolg'iz yashovchi keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, tazyiq va zo'ravonlikka duch kech shaxslar, kam taminlangan oila va ularning farzandlari kabi jamiyatning himoyaga muhtoj guruhlariga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko'rsatishi ijtimoiy hodimdan katta mas'uliyat talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘o'zgaralar parvarishiga muhtoj

shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida 2025-yil 8-maydagi PQ-171-son qarori qabul qilindi . Ushbu qarorga asosan; Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-iyundagi 376-son qarori qabul qilindi

Dastur doirasida quyidagi 5 turdagi yangi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

- Uy sharoitida ijtimoiy maishiy yordam ko'rsatish xizmati
- Uy sharoitida qarab turish xizmati
- Tibbiy ijtimoiy reabilitasiya xizmati
- Kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati
- Shaxsiy yordamchi xizmati

Uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish hamda kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati uchun:

❖ Kambag'al oilalar reestri , o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar reestriga kiritilgan shaxslarga

❖ "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborat tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordamni oluvchi shaxs oilalarga;

Shaxsiy yordamchi xizmati uchun

❖ I guruh nogironlik belgilangan shaxsga
❖ Ko'zi ojizlik bo'yicha birlamchi nogironlik belgilangan shaxsga
❖ Birinchi marta nogironlar aravachasidan foydalanish belgilangan shaxsga

Dastur doirasida yo'lga qo'yiladigan ijtimoiy xizmatlardan foydalanish xarajatlarining bir qismini vaucher asosida qoplab beriladi. Vaucher qiymati

hukumat tomonidan belgilangan miqdorda subsidiya shaklida to'lanadi. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish xarajatlari vaucherda belgilangan xizmat ko'rsatish hajmi(soati)dan kelib chiqib "yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimidagi **"oila hamkori"** platformasi orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy xizmatlar "Inson" markazlari va tizim tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatiladi. Yuqumli yoki ruhiy kasallik bilan kasallangan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatilmaydi.

Sharof Rashidov tumani Yakkaqayrog'och MFY da "keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun Jizzax sanatoriysi" ehtiyojmand fuqoralarni qo'llab quvvatlash maqsadida "Faol hayotga qadam" dasturi doirasida Dilnoza Sanaqulova tomonidan "tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya xizmat" turi yo'lga qo'yildi. Ayni damda u yerda 14 nafarga yaqin kishi kunduzgi qatnov asosida foydalanmoqda. Bundan tashqari ehtiyojmand aholining 30 nafariga ijtimoiy maishiy xizmati, 12 nafari uyda qarab turish xizmati, 2 nafari o'z-o'zini band qilgan holda uyda qarab turish xizmati yo'lga qo'yildi. Kunduzgi qatnov asosidagi xizmatlar o'zgalar parvarishiga muhtojlik darajasi **Bartel va Lauton shkalalari** bo'yicha 0 dan 62 ballgacha bo'lgan 18 va undan katta yoshdagi shaxslarga ko'rsatiladi. Har haftada 5 kun, soat 8:00 dan 17:00gacha kunduzgi qarab turish, ovqatlantirish, gigiyenik me'yorlarga rioya qilish, muloqat va mustaqil harakatlanish, tibbiy mashq ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. **"Faol hayotga qadam"** dasturi doirasida imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun umid va yashashga ishonch istagi qayta uyg'onmoqda. Samimiy, mehribon va sabr-toqatli g'amxo'r xodimlar yordami bilan imkoniyati cheklangan fuqarolar sog'lig'i va ruhiyatiga ijobiy va samarali tasir ko'rsatmoqda.

Shuni aniq aytish joiki, bu kabi ijtimoiy xizmatlar imkoniyati cheklangan fuqoralarga kundalik ehtiyojlarini qondirilishi bilan birga uning oila azolarining ishlash istagi bor fuqarolar ishlash imkoniyati ega bo'ldi hamda oilasida farzandlarining kamol topishida ta'lim tarbiyasi, uy yumushlari va **"ijtimoiy xordik"** olishida zamin yaratildi.

Kirish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ijtimoiy hodimning fuqoralar bilan muloqat ko'nikmalari to'g'risidagi qo'llanma.*

Tuzuvchilar: S.N. Inogamov, F.F. Nazarov.

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 8-maydagi PQ-171-son qarori.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2025-yil 18-iyun 376-son qarori.*

4. *O'zbekiston milliy axborot agentligi <https://uza.uz>.*

5. *“Xalq so'zi” gazetasi <https://xs.uz>.*